

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**  
Namangan davlat universiteti  
rektori  
S.T.Turg‘unov  
2024-yil




**Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni  
Namangan davlat universitetining “60910200-Davolash ishi” va  
“60910300-Pediatriya ishi” ta’lim yo‘nalishlariga suhbat asosida  
o‘qishga qabul qilish bo‘yicha**

**DASTUR**

**60910200 - Davolash ishi**

**60910300 - Pediatriya ishi**

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, oliy va professional ta'lim muassasalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 11.01.2022-yildagi 17-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risida"gi nizomiga asosan ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**  **M.Karimov** - Tibbiyot kafedrasida dotsent v.b, PhD

**Q.Inomov** - Tibbiyot kafedrasida dotsent v.b

**Taqrizchilar:**  **A.Batoshov** - Tibbiyot fakulteti dekani, b.f.d, professor

**M.Mirzaolimov** - Tibbiyot kafedrasida mudiri, PhD

## KIRISH

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, oliy va professional ta'lim muassasalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 11.01.2022-yildagi 17-sonli Qaroriga asosan ishlab chiqilgan.

Suhbat Qaror bilan tasdiqlangan **"Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom"** asosida o'tkaziladi.

### 1.Suhbat jarayonini tashkil etish va o'tkazish

Universitet rektori 10-avgustga qadar o'z buyrug'i bilan har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha alohida Suhbat komissiyasini tuzadi.

Suhbat komissiyasi 9 nafardan kam bo'lmagan tarkibda tuziladi va uning tarkibiga kadrlarning asosiy ish beruvchilari bo'lgan tashkilotlar va oliy ta'lim muassasasi bo'ysunuvi bo'yicha vazirliklar va idoralarning mas'ul xodimlari, sohaga taalluqli texnikumning malakali o'qituvchisi hamda boshqa oliy ta'lim muassasasining tegishli soha bo'yicha professor-o'qituvchisi kiritiladi.

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha suhbat jarayoni to'liq videokuzatuv ostida o'tkaziladi va jarayon ota-onalar, kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga ovozli tarzda onlayn translatsiya qilib boriladi.

Suhbat jarayoni to'liq va sifatli videokuzatuv ostida o'tkazilishini va videoyozuvlarning kamida uch yil universitetda saqlanishini ta'minlash mas'uliyati shaxsan universitet rektori zimmasiga yuklatiladi.

Bitiruvchilarni universitetga o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan suhbat jarayoni har yili 10-avgustdan 25-avgustgacha, universitet tomonidan belgilangan muddatda, Suhbat komissiyasi tarkibining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda o'tkaziladi.

Suhbat o'tkazish muddatlari suhbat jarayonlari boshlanishidan kamida bir hafta oldin universitetning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Suhbat jarayoniga jamoatchilik vakillari ham xolis kuzatuvchi sifatida jalb etilishi mumkin.

Belgilangan muddatlarda suhbatga kelmagan bitiruvchilarga shu o'quv yili uchun qayta suhbat o'tkazilmaydi va ular universitet bakalavriat ta'lim yo'nalishining 2-bosqichidan o'qishga qabul qilinmaydi.

Bitiruvchi uzrli sabablarga ko'ra (kasalligi, xizmat safarida bo'lganligi yoki oila a'zolarining vafot etganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etganda) suhbatda ishtirok eta olmaydigan bo'lsa yoki ishtirok etmasa, suhbat o'tkazilgan



sanadan uch kundan kechikmay universitetda tuzilgan qabul komissiyasiga murojaat etishi lozim.

Mazkur toifadagi bitiruvchilar uchun suhbat jarayonlari to'liq yakunlanganidan so'ng bir hafta muddat ichida qo'shimcha suhbat o'tkaziladi.

## **2. Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga quyidagi mavzular bo'yicha bittadan jami to'rtta savol beriladi**

- I. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish;
- II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish);
- III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliatlari);
- IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi.

## **3. Baholash mezonlari**

Jami to'plash mumkin bo'lgan eng yuqori ball 100 ballni tashkil etadi.

Mazkur savollar bo'yicha baholash mezonlari universitet tomonidan ishlab chiqilib, tasdiqlanadi hamda ularning rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinadi.

Savollar universitet qabul komissiyasi tomonidan ishlab chiqilib, qabul komissiyasi raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan suhbat natijalarini qayd etish varag'iga har bir bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbat natijasiga ko'ra ball belgilab boriladi va imzolanadi.

Ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi, bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rinlarda - suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi **67** ball va undan yuqori bo'lganda abituriyent suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Ta'lim yo'nalishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abituriyentlarga o'qib eshittiriladi.

#### **4. Apellyatsiya komissiyasi**

Universitetda suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida universitetda to'g'ridan to'g'ri yozma shaklda yoki Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn shaklda qabul qilinadi va apellyatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo'lgan muddatda videoyozuv asosida ko'rib chiqiladi.

#### **5. Suhbat natijalari**

Suhbat natijalariga ko'ra talabalikka tavsiya etilganlar to'g'risidagi ma'lumotlar natijalar e'lon qilingan kundan boshlab uch kun muddatda universitet rektori tomonidan bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik, idoraga taqdim etiladi.

Suhbat komissiyasining suhbat natijalarini qayd etish hamda suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varaqlari uch yil universitetda saqlanadi.

Suhbat komissiyasi a'zolari mehnatiga haq to'lash universitet talabalariga o'quv mashg'ulotlarini olib borganlik uchun belgilangan soatbay haq to'lash shartlarida universitetning budjetdan tashqari to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

#### **6. Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni Namangan davlat universitetining "60910200-Davolash ishi" va "60910300-Pediatriya ishi" ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha**

##### **SAVOLLAR**

##### **I. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish bo'yicha**

Tibbiyot sohasida chiqarilayotgan qarorlarning jamiyat uchun ahamiyati qanday? Tibbiyot sohasi rivojiga hissa qo'shgan jahon olimlaridan kimlarni bilasiz? Tibbiyot sohasiga ulkan hissa qo'shgan mamlakatimiz olimlar va ularning izlanishlari haqida gapirib bering? Tibbiyotning asosiy vazifalari nimalardan iborat? Tibbiyot oldida turgan muammolar nimalardan iborat?

Ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini nazorat qilish deganda nima tushuniladi? Bu kasbni tanlashdagi asosiy maqsadingiz? Nima uchun aynan tibbiyot yo'nalishini tanlamoqdasiz? Mustaqillik yillarida buyuk ajdodlar va tarixiy shaxslarga bo'lgan e'tibor haqida gapirib bering. Talabalar bilimni baholash reyting tizimida qanday nazorat turlari mavjud?



O'zbekistonning o'ziga xos yo'li deganda nimani tushunasiz? O'zbekiston Respublikasi Yangi Konstitutsiyasi haqida nimalarni bilasiz? "Yoshlar- kelajak poydevori" degan fikrga sizning munosabatingiz qanday? Yutuq bor joyda kamchilik ham muammo ham bo'ladi, sizningcha Tibbiyot muassasalaridagi muammolar nimalardan iborat? Hukumatimiz tomonidan ko'p yillar xizmat ko'rsatgan soha hodimlarining rag'batlantirish ishlari qanday amalga oshirilmoqda?

Bolalar va ijtimoiy yordamga muhtoj fuqarolar guruhiga (imkoniyati cheklangan insonlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, ko'p bolali oilalar va boshqalar) hozirgi kunda tibbiyot muassasalari qanday e'tibor qaratmoqda? Sizningcha, Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada takomillashtirish, Tibbiyot muassasalari faoliyatini rivojlantirish uchun yana qanday ishlarni amalga oshirish kerak? Tibbiyot muassasalarida qanday davlat axmiyatiga ega bo'lgan tadbirlar o'tkazib boriladi? Fikringizni izohlang.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tibbiyotga oid farmonlaridan qaysilarini bilasiz? Zamonaviy bosqichda sog'liqni saqlash sohaning dolzarb vazifasi nimalardan iborat? O'zbekistonda tibbiyot ta'limi faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qanday islohotlar amalga oshirilmoqda? Nodavlat tibbiyot ta'limi tashkilotlarini tashkil etishdan ko'zlangan maqsadni izohlang? Mamlakatimizda tibbiy ta'limi tashkilotlarining qanday turlari faoliyat ko'rsatmoqda? Mamlakatimizda tibbiy ta'limi sohasini rivojlantirish maqsadida xalqaro hamkorlik doirasida qanday ishlar amalga oshirildi? Mamlakatimizda sog'liqni saqlash sohasida olib borilayotgan ishlarning mohiyatini tushinasizmi? Tibbiyot sohasida kadrlar malakasini oshirish qanday amalga oshiriladi?

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin sog'liqni saqlash, aholining tibbiy madaniyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar? O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tibbiyot sohasidagi vakolatlari mazmuni va mohiyatini yoritib bering? Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunga ko'ra yoshlar (yosh fuqarolar) deganda qanday shaxslar tushuniladi? Fikringizni izohlang. Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tashkil etilishiga nima asos bo'ldi? Bugungi kunda Aholining elektron axborot resurslar (Tibbiyot sohasida)dan foydalanish imkoniyati qanday?

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularni bo'shvaqtlarini mazmunli tashkil etish bo'yicha beshta muhim tashabbus qachon, nima uchun qabul qilingan? O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish dasturida qanday masalalar haqida so'z boradi? Zamonaviy o'qitish usullarining innovatsion shakllari asosida multimediyaviy vositalari yordamida o'qitish, hamda masofaviy ta'lim haqida qanday tushunchaga egasiz? O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan qon tahlili bo'yicha chiqarilgan qoidalar? Fikringizni izohlang.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021-yil 25-maydagi PQ-5124-sonli Qarorining mazmuni va mohiyati haqida yoriting. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023-yil 1-maydagi PQ-140-sonli Qarorining mazmuni va mohiyati haqida yoriting? O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Prezident qarorining mazmuni va mohiyatini yoriting? O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘liqni saqlash to‘g‘risida” gi (2021 yil, 2 avgust, №705) Qonunning mazmuni va mohiyatini yoriting?

O‘zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuning maqsadi nima? “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati qachon O‘zbekiston Yoshlar ittifoqiga aylantirildi va uning asosiy farqli xususiyatlari nimalardan iborat? O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2022-yil 25-apreldagi PQ-215-sonli Qarorining mazmuni va mohiyati haqida yoriting. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirligining “Aholini profilaktik ko‘riklari, skrining dasturlari va patronajni amalga oshirishni yanada takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi 2022-yil 27-apreldagi №210 sonli buyrug‘i haqida ma’lumot bering.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida ”gi 2020-yil 10-noyabrdagi PQ-4887-sonli Qarorini mohiyatini tushuntiring. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangimexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 12-noyabrdagi PF-6110-sonli Farmononida nimalarga e’tibor qaratilgan? O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining “Patronajning universal-progressiv modelini amaliyotga joriy qilish tadbirlari haqida”gi 2021-yil 21-dekabrdagi №287 sonli buyrug‘ining maqsadi nimalardan iborat edi?

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish va shifoxona ichki infeksiyalarini profilaktika qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida ”gi 2018-yil 22-iyundagi PQ-3800-sonli Qarorini haqida nimalarni bilasiz? O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida faoliyat yuritayotgan “tibbiyot brigadalari” faoliyatini baholash tartibi va Nizomini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2022-yil 26-sentyabrdagi №263 sonli buyrug‘i nima maqsadda chiqarildi? O‘zbekiston Respublikasi sanitariya me’yorlari, qoidalari va gigiyenik normativlariga binoan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida yuqumli kasalliklar immunoprofilaktikasi – SanQvaM №0239-07/4 ga qo‘shimcha” haqida nimalarni bilasiz? O‘zbekiston Respublikasi “Aholining sanitariya-



epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi qonuni, №393, 26 avgust 2015-yil. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-noyabrdagi "Reproduktiv yoshdagi ayollar, homiladorlar va bolalarga ko'rsatiladigan tibbiy yordam sifatini oshirish va ko'lamini yanada kengaytirish to'g'risida"gi PQ-4513-sonli qarori.

## **II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish) bo'yicha**

Nima uchun bakalavriatning shu yo'nalishini tanlaganingizni asoslab bering. Hozirga qadar qaysi fanlarni katta qiziqish bilan o'rgandingiz? Fanlar bo'yicha olimpiada va musobaqalarda qatnashganmisiz, bu zarurmi? Qaysi sohalar va fanlarga ko'proq qiziqasiz? Shaxsiy qaror qabul qilinishida mas'uliyat, bilim, tajriba, maslahatlashish va murosa yo'lini tanlashning qaysi biri eng muhim deb hisoblaysiz? Shaxsiy xavfsizlik va xavfsizlik buyumlari deb nimalarni tushunasiz? Siz qanday Tibbiyot markazlarida ishlashni orzu qilasiz? Mahalliy sog'liqni saqlash amaliyotining asosiy komponentlari va tamoyillari.

Agar, sizga imkoniyat berilsa, o'z ish joyingizda qanday tartib intizom, boshqaruvni yo'lga qo'ygan bo'lar edingiz? Siz o'zingizda ushbu tanlagan yo'nalishingizga qobilyat bor deb o'ylaysizmi va qanday? Keyinchalik ushbu tanlagan yonalishingizda qat'iy qolishingizga ishonasizmi va nima uchun? Ushbu tanlagan yo'nalishingizda o'qib qandaydir yutuqlarga erishishga ishonasizmi? Kelajakda siz bu yo'nalishni bitirib qanday ish qilmoqchisiz? Kelajak mutaxasislari qanday bo'lmog'i kerak? Bu sohaga qiziqish sizda qachon uyg'ongan? Nima uchun siz bu yo'nalishni tanladingiz? Shaxsiy hayotingizda sizga tanlagan yo'nalishingiz qanday ahamiyati bor?

Mustaqil qaror qabul qilishni har doim ma'qul deb hisoblaysizmi? Insonga iqtisodiy mustaqillik zarurmi, nima uchun? Inson iqtisodiy mustaqillikka qanday erishadi? Bu kasb egalari hammadan ko'ra bilimli xodimlar hisoblanadi, siz buni qanday izohlaysiz?

Ba'zi ota-onalar bu kasbni moliyaviy yaxshi yashash omili deb o'ylab farzandini shu sohada o'qitmoqchi bo'ladilar, sizning ota-onangiz qanday fikrda? Bu kasbni egallagan soha egalari barkamol va sog'lom inson shakllanishiga xizmat qiladilar, buning uchun qanday darajada bilimli bo'lishlari kerak? Mamlakatimiz rahbari nima uchun bugun tibbiyotgaga e'tiborini qaratib, bu sohani yuqori darajaga ko'tarishni ilagari surmoqdalar?

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan soha xodimlarini qo'llab-quvvatlab, yuksak unvonlarni berilishi nimaning evaziga deb o'ylaysiz? Davolash muassasalarining turlari. Dispanser haqida ma'lumot bering. Kasalxona ichi infeksiyasi haqida ma'lumot bering. Bolalar kasalxonasining asosiy binolarini sanab o'ting. Motivatsiya nima? Mahorat nima? Ijtimoiy jamiyat nima? Malaka oshirish haqida tushuncha bering? Induvdival mahorat



nima? Evtanaziya tushunchasi nima. Zamonaviy o'rta tibbiyot xodimining kasbiy kompetensiyalarini ayting.

Xalq tabobati deganda nimani tushunasiz? Va u nimaga asoslanadi? Pestitsidlar haqida tushuncha, nomuvofiq oqibatlar va oldini olish tadbirlari. Bu sohaning fidoiylari ishlash jaroyonida ba'zi bemorlarni huddi psixologlarga o'xshab ruhiyatini davolashga harakat qiladilar, buni qanday uddalaydilar? Deontologiya tushunchasini yoritib bering Mutaxassis kim? Yurtimizdagi tibbiyot muassasalarni eng rivojlangan horijiy davlatlar tibbiyot muassasalariga tenglashtirish uchun yana nimalarga e'tiborni qaratish lozim, nima deb o'ylaysiz? Kuzatuvchanlik deganda nimani tushunasiz? Kasbiy xotira nima? Individuallik nima? Ruhiy charchash nima? Professionallik nima? Boshqaruv deganda qanday fikr bildirasiz? Tanlagan yo'nalishigiz boyicha biror bir ilmiy rejangiz bormi, qanday? Kasbiy rivojlanishning pasayishi deganda nimani tushunasiz?

### **III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari) bo'yicha**

Agar to'g'ri javobni bilmasangiz, uni o'ylab topishga harakat qilasizmi? va nima uchun? Sizga yangi usullarni o'ylab topishdan ko'ra hammasini odatdagidek bajarganingiz ma'qulmi? Xizmatda yuqori pog'onaga ko'tarilish odatda odam qobiliyati va sa'yi-harakatiga emas, balki omadli holatlarga bog'liqdir. Bu fikrga qo'shilasizmi? Shu kunga qadar qanday shaxsiy yutuqlarga erishdim deb hisoblaysiz?

Ko'pchilikka omad chopganidek tuyulgan narsa aslida bu uzoq maqsadga erishish uchun qilingan harakat samarasidir! Sharhlang Men hayotda reja tuzayotganimda uzoqni ko'zlamayman, chunki taqdir taqazosi rejani yo'qqa chiqarishi mumkin. Bu fikrga qo'shilasizmi? Boshqaruvni tashkil etishning yomonligiga sabab shu yerda ishlaydigan ishchilarning o'zi. Bu fikrga munosabatingiz?

Odam ishda muvaffaqiyatga erishmaganligining sababi - shu ishga astoydil kirishmaganligidadir. Ushbu fikrga munosabatingiz!? Murakkab hollarda muammoni hal qilishga shoshilmasdan uning o'z-o'zidan hal qilinishini kuzatish zarur. Siz qanday yo'l tutasiz? O'z imkoniyatlarini amalga oshira olmagan qobiliyatli odamlar aybni o'zlaridan ko'rishlari lozim. Shaxsiy fikringiz? Kishining hayotidagi muvaffiqiyasizliklari nimaning oqibatida sodir bo'ladi deb hisoblaysiz?

Bilimlarni tajriba va sinov orqali o'zlashtirasizmi? So'zlashganda kitoblarda o'qigan obrazlardan foydalanasizmi? Hayotingizda biror narsaga erishish uchun hamma narsaga tayyormisiz? Shaxsiy qaror qabul qilish va uni bajarishda qanday jarayonlar amalga oshiriladi? Oilada yoshlarni milliy g'urur asosida tarbiyalash deganda nimani tushinasiz? O'z fikringizda qat'iy



to'g'riligiga ishonsangiz unda qat'iy turib olishga kuchingiz yetadimi? Qiyin muammolarni hal qilishda boshqalarga emas o'z kuchingizga ishonishga kuchingiz yetadimi?

Agar men o'z fikrimni isbotlashim uchun to'g'ri yo'lda turganimga ishonchim komil bo'lsa, ming xalaqit berishsa ham o'z yo'limdan qaytmayman. (javob ha, yo'q) javobingizni sharhlang! Shaxsiy tajriba deganda nimani tushunasiz? Qat'iylik deganda nimani tushunasiz? Sizningcha faoliyatni optimallashtirish deganda nimani tushunasiz? Samimiylilik tushunchasini qanday izohlaysiz? Nimanidir yaratish sizga zavq bag'ishlaydimi? Yaratgan narsangizni esga oling! Kunlik topshiriqni bajarmasdan uyga ishdan xotirjam keta olasizmi? va nega? Ilmiy-texnik yutuqlar, texnik qurilmalar haqida o'qish, eshitish, filmlarni tomosha qilish sizga yoqadimi?

Tibbiyot muassasalarining sanitariya-gigienik xolati deganda nimani tushunasiz? Kutilmagan vaziyatlar sizni karaxt holatga keltirib qo'yadimi? Jamiyatning ma'naviy sog'lomlashuv jarayonida elektron matbuotning ahamiyati haqida ma'lumot bering? Bilim olishda qanday yutuqlarga va kimlar tufayli erishgansiz? Kelgusida qanday yutuqlarga erishishni rejalashtirmoqdasiz? Vrachning professional faoliyatida shaxsiy fazilatlar qanday ahamiyatga ega? Tanqidiy fikrlash nima va u vrach faoliyatida qanday ahamiyat kasb yetadi?

Vrachning o'ziga xos odob-axloqi, ma'naviy tamoyillari va boshqa kasbiy fazilatlar nimalarda namoyon bo'ladi? Bolalar vrachi (pediatr) etikasi haqida nimalarni bilasiz? Shifokorning tibbiy madaniyatida faollik, ichki da'vat, ongli rag'bat singari xususiyatlar qanday ahamiyatga ega? Siz qarorlarni qanday qabul qilasiz? O'zingizning tajribangizdan kelib chiqib misollar keltiring? Rahbar va lider tushunchalari o'rtasidagi qanday mushtarak va farqli jihatlar mavjud? Rahbarlikka munosabatingiz qanday?

Simpatiya, antipatiya va empatiya tushunchalari o'zaro munosabatlarda qanday ro'l o'ynashini alohida-alohida tushuntirib bering? Haqiqiy lider (yetakchi) qanday bo'lishi kerak? Yetakchilikning asosiy ko'nikmalari nimalarda namoyon bo'ladi? Dars sifati kimga bog'liq - o'quvchilarning faolligigami yoki pedagogning? O'zingiz tanlagan yo'nalishda mavjud zamonaviy texnologiyalarni bilasizmi? Inson kamolotiga qanday omillar, jarayonlar va shart-sharoitlar ta'sir ko'rsatadi? Shaxsiy qaror qabul qilinishida mas'uliyat, bilim, tajriba, maslahatlashish va murosa yo'lini tanlashning qaysi biri eng muhim? Mustaqil qaror qabul qilishni har doim ma'qul deb hisoblaysizmi? Bilim olishda qanday yutuqlarga va kimlar tufayli erishgansiz? Kelgusida qanday yutuqlarga erishishni rejalashtirmoqdasiz?

Tibbiyot etikadasigi "Ziyon yetkazma" shartini tushuntirib bering. Bemorga tashxis qo'yishda "vrachlar konsiliumi" nima va qanday ahamiyatga ega? Faoliyatingizda intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik va shaxsiy javobgarlik qanday ahamiyatga ega?



#### **IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha**

Shifoxona qabul bo'limi faoliyati haqida ma'lumot bering. Terminal holat, agoniya, klinik va biologik o'lim tushunchalariga ma'lumot bering? Antiseptika va aseptika asoslarini o'rganish, xirurgik bemorlarni qabul qilishda sanitar ishlov berishning ahamiyati. Hushdan ketish, sabablari va birinchi tibbiy yordam ko'rsatish usullari haqida ma'lumot bering? Bolalarga kerakli bo'lgan bir martalik va sutkalik sut miqdorini aniqlash usullari. Auskultatsiya, Asfiksiya - sabablari va birinchi yordam haqida ma'lumot bering? Bolalarni tarbiyalash va parvarish qilishda asab tizimining qanday ahamiyati bor? Bolalarda teri va teri osti yog' qatlamining o'ziga xos qanday xususiyatlari bor?

Kontrol o'lchash va uning ahamiyati. Arterial va vena bosim haqida ma'lumot bering. O'lchas usullarini tushuntiring Organizm nerv tizimining tuzilishi va ahamiyati haqida ma'lumot? Siydikdagi qandni aniqlash uchun siydik yig'ish va yuborish. Bolalarda suyak tizimining anatomik-fiziologik xususiyatlarini sanab bering? Anafilaktik shok, sabablari va tez tibbiy yordam berish usullari.

OIV infeksiyasiga qon olish qoidalari, saqlanishi va tashib yetkazish qoidalari. Dezinfektsiya, uning turlari va usullari haqida ma'lumot bering? Giperglikemik koma nima, shoshilinch yordam ko'rsatish? Bronxial astma xurujida tez tibbiy yordam. Tug'ma yurak nuqsonlari, sabablari va aniqlash usullari? Yotoq yara asosiy hosil bo'lish sohalarini sanang. Yotoq yaralarning turli bosqichlarida qanday parvarish amalga oshiriladi? Qon guruhlari va qon quyilish sxemasi haqida ma'lumot bering? Davolash-profilaktika muassasalarida sanitariya-gigiyena, epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar.

Xazm a'zolari bilan kasallangan bemorlarni tekshirish usullarini yoritib bering. Davolash-profilaktika muassasalarida dezinfektsiya va sterilizatsiya rejimlari qanday amalga oshiriladi? Isitma, isitma bosqichlari va isitmaning turlari, o'lchash qoidalari haqida gapiring? Qon tizimi kasalliklarida bemorlarni tekshirish usullari Buyrak kasalliklarida bemorlarni tekshirish usullari Stenokardiya nima va shoshilinch yordam ko'rsatish? Miokard infarkda shoshilinch tibbiy yordam sha qoidalari. Tug'ma yurak nuqsonlari, sabablari va aniqlash usullari?

Bolalarda yuqumli kasalliklarga qarshi emlash ishlarini tashkil etish. Bolalarda yurakni bilvosita massaj qilish va o'ziga xos xususiyatlari. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarni ovqatlantirish turlari va qoidalari. Bolalarda yurak qon-tomir tizimining anatomik-fiziologik xususiyatlari? Bolalarda oshqozon ichak traktining anatomik-fiziologik xususiyatlarini aytib o'ting? Bolalarda siydik hosil qilish va siydik ajratish tizimining o'ziga xos xususiyatlari? Bolalarda endokrin tizimning anatomik-fiziologik xususiyatlari. Chaqaloqlar antropometriyasi haqida ma'lumot bering? Bolalarga sun'iy nafas berish qanday amalga oshiriladi? Bolalarda anamnesis morbi va anamnesis vitae yig'ish, ularning farqlari nimada?

Patsient bilan verbal va noverbal muloqot ko'nikmalari. Bemorlarning ruhiy holati «Depressiya, shok, qo'rquv, cho'chish, ipoxondriya, o'zini aybdor xis qilish», suyitsidal fikrlash va x.k. Krizis xolatda bo'lgan bemorga maslahat berish. Yo'qotish, bemor xolatini o'ziga xosligi. Keksa bemor. Keksa organizmning fiziologik xususiyatlari haqida ma'lumot bering. Xirurgiya va reanimatsiya bo'limlari asosiy jixoz va anjomlari. Xirurgiyada gospital infeksiyani profilaktikasi. Yurak va qon tomirlar rentgenanatomiyasi, angiografiya. Bolalarga va o'smirlarga davolash-profilaktik yordam ko'rsatishning zamonaviy tamoyillari. Nafas olish a'zolari, yurak qon-tomir tizimi, hazm a'zolari, siydik hosil qilish va ajratish a'zolari kasalliklarida bemor bolalarni parvarishlash va nazorat qilish. Davolash muassasalari faoliyatini tashkil etish. Bemorlar umumiy parvarishining mohiyati



### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Gadaev A., Karimov M.SH., Axmedov X.S. "Ichki kasalliklar propedevtikasi". Darslik. Toshkent. "Turon Zamin Ziyo". 2014 – 340 b.
2. Gadaev A., Karimov M.SH. "Ichki kasalliklar propedevtikasi". Darslik. - Toshkent. 2012 – 310 b.
3. Мухин Н.А., Моисеев В.И. "Пропедевтика внутренних болезней". Учебник. Москва. 2014 – 296 с.
4. Василенко В.Х., Гребенев А.Л., Голочевская В.С. и др. "Пропедевтика внутренних болезней". Учебник. Из-во «Медитсина». Москва. 2001г. -592 с.
5. Лис М.А., Солоненко Ю.Т., Соколов К.Н. Пропедевтика внутренних болезней. Учебное пособие для студентов лечебного факультета. 2011г.,- 360 с
6. Jigar va o't yo'llari kasalliklari: klinik, laborator, instrumental tashxislash usullari. Kadirova G.G. O'quv qo'llanma. Toshkent. Nurfayz nashriyoti. 2020.142 bet.
7. Ortirilgan yurak nuqsonlari. Kadirova G.G. O'quv qo'llanma. Toshkent. Nurfayz nashriyoti. 2020.126 bet.
8. Раимкулова Н.Р., Кадирова Г.Г., Баратова Д.С. Приобретенные пороки сердца. Учебное пособие. «Голд Принт.Ташкент. 2018 г.
9. Струтынский А.В. "Основы семиотики заболеваний внутренних органов". Монография. Москва. МЕДпресс-информ. 2004 г.
10. Kadirova G.G. Jigar va o't yo'li kasalliklarini tekshirish usullari. O'quv qo'llanma. "Fan va texnologiyalar" nashriyoti. 128 bet, Toshkent. 2015 y.
11. Textbook of Harrison principles of internal medicine 20 th edition.McGraw-Hill Education/Medical/USA 2018 u.

### **Axborot manbaalari**

[www.bilim.uz](http://www.bilim.uz)

[www.lex.uz](http://www.lex.uz)

[www.medlook.ru](http://www.medlook.ru)

[www.medicum.ru](http://www.medicum.ru)

[www.medbook.ru](http://www.medbook.ru).

[www.cardioline.ru](http://www.cardioline.ru).